

MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ – MADANIYAT HOMIYSI

*Umida Zaripboyeva,
Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xiva xonligida qirq yetti yil hukmronlik qilgan, elning obodonchiligi va mustaqilligi uchun kurashib, Rossiya imperiyasining Xivani egallash yo'lidagi harakatlariga qarshilik qilib, o'z saroyida 40 ga yaqin olimlarni to'plagan hukmdor Muhammad Rahimxon II Feruz hayoti va hukmronlik yillari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

Muhammad Rahimxon II, "Feruz", Nurullaboy saroyi, Aleksandr II, Nikolay, Bobojon To'ra, Otajon to'ra, Said Muhammad, Yusufxo'ja Oxun, Polvonyop, Shohobod, Ko'hna Ark, Polvomyop va Shahobod kanallari, Ogahiy, Munis, Muhammad Yusuf Bayoniy, Shajarayi Xorazmshohiy, Tarrox Azizov, Xorazm navozandalari.

*Tarixga murojat qilar ekanmiz, bu xalq
xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak.
Xotirasiz kishining barkamol inson bo'la
olmaganidek, o'z tarixi bo'lmagan xalqning
kelajagi ham bo'lmaydi.*

Islom Karimov

Uch yuz allomalar yurti hisoblangan Xorazmda ko'plab hukmdor va allomalar o'tgan hisoblanadi. Shulardan biri Xiva xonligida qariyb chorak asr hukmdorlik qilgan hukmdor Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxoni Soniy hisoblanadi.

Muhammad Rahimxon II tarixda "Feruz" ya'ni "baxtli, saodatli" taxallusi bilan devon tuzgani, shoir, muarrix, bastakorlarga homiylik qilgani, Xorazm adabiy muhiti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan unga homiylik qilgan.

Buyuk istedod sohibi Feruz 1844-yil Navro'z ayyomida Said Muhammad oilasida dunyoga kelgan. Said Muhammad o'g'liga Bobojon to'ra deb ism qo'ygan. Bobojon Tarrox Azizov o'zining "Xorazm navozandalari" nomli qo'lyozma asarida Bobojon to'ra Xiva shahrining ichkari qismi Ko'hna Ark yonida tug'ilgan¹. Yosh hukmdor Xivadagi Arab Muhammadxon madrasasida ta'lim olgan. Muhammadrizo Ogahiy kabi mashur shoir va davlat arbobi yosh Bobojon to'raga sheriyaat ilmidan saboq bergan. Quroni Karimni qiroat bilan o'qiy boshlashi saroy ahlini havasini keltirgan.

¹ Davlatyor Rahim. Shixnazar Matrasul. Feruz shoh va shoir qismati. – T.: G'afur G'ulom, 1991. – B. 16-17.

Davlat va huquq ilmini zamonasining mashhur mudarrisi shoir va olim Doiy va Yusufxo'ja Oxundan o'rgangan. Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy shoirlarning asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan.

Xiva xoni Said Muhammad 1863-yil qoraqoptol kasalligidan vafot etgan. Shundan keyin o'n olti yoshida xonlik taxtini Muhammad Rahimxon II egallagan. Ogahiy uning taxtga chiqishi munosabati bilan qasida yozgan. Muhammad Rahimxon II xonlikni 1863-yildan – 1910-yilgacha boshqargan².

Muhammad Rahimxon II Xiva xonligida hukmdorlik qilgan davrini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin:

Birinchi davr. Mustaqil davlatda rahbarlik qilgan 1863-1873-yillar. Bu yillarda hukmdor o'zbek, qoraqolpoq va turkman xalqlari o'rtasida bo'lib turgan o'zaro nizolarni oldini olishga harakat qildi.

Ikkinchi davr 1873-yil 12-avgustdan – 1910-yilning 15-avgustiga qadar bo'lgan 37 yil davomida rus imperatoriga qaram bo'lgan holda hukmdorlik qilingan yillar.

Feruzshunos olim G. Ismoilovning yozishicha Xiva va uning tevarak atrofidagi shoir, adabiyotshunos, muarrix, musiqashunoslar saroyiga yig'ilib, bir adabiy markaz vujudga keltiradi. Muhammad Rahimxonning homiyligi ostida o'nlab istedadli shoirlar, ajoyib sozandalar yetishib chiqadi. O'nlab to'plamlarning yaratilishiga homiylik qilgan. "Bayozi musaddasot", "Bayozi muhammasot", "Bayozi Ashor" kabilar fikrimiz dalilidir. Feruz 1882-yilda Xorazm maqomlari to'g'risida mashhur qonun chiqargan. Ma'lumki xonlikda Navro'z ayyomida Xorazm yoplarini tozalash uchun qazuv e'lon qilingan.

Muhammad Rahimxon II Polvonyop va Shahobod kanallarini tozalashga shaxsan o'zi rahbarlik qilgan. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Muhammad Rahimxonning o'zi yop ichiga tushib, o'z qo'li bilan ariqni tozalayotganda, qazuvchilardan biri kelib xonning qo'lidan belkurakni olgan. Ushbu xizmati uchun o'sha qazuvchi mavsum oxirigacha qazuv ishlaridan ozod etilgan. O'sha davrlarda Saribiy arig'i qazilgan va Sho'raxon yopi kengaytirilgan. Xasan bog'bon degan kishi boshchiligida mamlakatning turli burchaklaridan ko'chatlar keltirilib, ana shu bog'da har xil mevali daraxtlar o'tkazilganligi jumhuriyatda xizmat ko'rsatgan muallim Matyoqub ota Rajabov o'z xotiralarida xikoya qiladi.

Bu davrda qurilish ishlariga ham katta etibor berilgan. 1871-yil Muhammad Rahimxon II Ko'hna Ark qarshisida o'z nomi bilan ataluvchi madrasa qurdirgan. U O'rta Osiyoda qurilgan madrasalar ichida eng mukammali hisoblanadi. Umuman olganda, XIX asr oxiri – XX asr bosharida 20 dan ortiq madrasa, masjid, minora va yo'llar barpo etildi. To'ra Murod madrasasi, Bikajon bika minorasi, Polvon qori madrasasi, Polvon darvoza va Islom xo'ja miorasi shular jumlasidandir. U o'zining

² Sadriddin Salim Buxoriy. Buyuk Xorzmiylar. – T.: Yozuvchi, 1993. – B. 12-13.

o'g'li Asfandiyorxonga bag'ishlab Nurullaboy nomli shaxsning bog'i o'rnida saroy qurdirgan³. Shuning uchun saroy Nurullaboy saroyi deb nom olgan. Muhammad Rahimxon II zamonida mamlakatda tinchlik, osoyishtalik va farovonlik o'rnatiladi. Xonlik aholisi ko'payib shaharlarda katta qurilish qishloqlarda obodonchilik ishlari bo'ladi.

Madaniy hayotda ham ulkan bir yuksalish sodir bo'ladi. Shu davrda yozilgan Ogahiyning "Taviz ul oshiqin" devoniga kirgan tarixlarning ko'pchiligi Feruz zamonida bo'lib o'tgan voqealar tavsifiga bag'ishlangan. Hamama zamonlarda bo'lganidek, shohlarning ham o'z madaniy muhitida yozuvchilarni jamlagan bo'ladi. Feruzning yonidagi tarixchi va shoir, do'sti va ustoz Muhammad Yusuf Bayoniy xonning obodonchilik sohasidagi xizmatlarini o'z asari "Shajarayi Xorazmshohiy"da ta'riflab o'tadi.

Fridrix Gelvaldning malumotlariga qaraganda, XIX asr 70-yillarida Xorazm vohasi aholisi 700 ming kishidan ortgan. Kunlardan bir kuni Ustyurt atrofidagi qozoqlar Mang'ishloq atrofida baliqchilik qilib yurgan ruslardan 21 tasini qul qilib, Xiva bozoriga olib kelib sotadilar. Ana shu qullardan bir nechtasi rus imperatoriga maktub yo'llab o'zlarini qul ekanliklarini va ozod qilishini so'raydi. Bu voqea qachondan beri Xiva xonligi yerlarini egallashni maqsad qilib olgan ruslarga juda qo'l keladi. Rossiya imperatori Aleksandr II ning uzoq yillardan beri rejalashtirib yurgan qora niyatini amalga oshirishda bir bahona bo'ldi. Shu tariqa Muhammad Rahimxon II va Aleksandr II o'rtasida bir necha barobar elchilik almashinishi sodir bo'ladi. Ikkala hukmdor o'rtasida qullar masalasida nizo kelib chiqadi. Muhammad Rahimxon II uning talabini qabul qilishni xohlamaydi. Bundan maqsad Xiva xonligini mustaqilligini saqlab qolish edi. Chunki aynan shu davrda Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligi va Buxoro amirligini birin-ketin mustamlaga aylantirayotgan edi. 1869-yilga kelib Mang'ishloq atrofidagi bir guruh mehnatkash xalq vakillari rus hukmronligiga qarshi isyon ko'tardilar. Bu kurash 1871-yilgacha davom etdi.

1872-yilning 14-noyabrida Fon Kaufman Aleksandr II ga maktub yo'llab Xivaga yurish boshlab xonlikni yanchib tashlash to'g'rsida farmon beradi. Xivaga yurish qilish uchun qariyb 5 yil tayyorgarlik ko'riladi⁴ tomondan shimolda Orenburg, g'arbda Mang'ishloq, janubda Krasnovodsk, sharqda Turkiston orqali Xiva xonligini bosib olish uchun tayyorgarlik ko'radi. 1873-yilning yanvarida Qoradamoq orqali Orolning g'arbiy qirg'og'i bo'ylab Xivaga qarshi yurish boshlaydi. Rossiya imperiyasi askarlari Xivaga yurish paytida yo'lda uchragan qozoq, qoraqolpoq, turkman ovullari ayovsiz talaydi, ularga o't qo'yiladi. 1873-yil 29-may kuni Xiva shahri egallandi. Ammo bu payt saroyda to'ntarish bo'lib Feruz o'rniga taxtga akasi Otajon to'ra chiqib olgan edi. Kaufman taxtga yana Feruzni o'tqazgan. Shu tariqa Xiva xonligida Rossiyaga

³ Zamonov Akbar. Tarix fanidan olimpiadaga tayyorlanamiz. – T.: Bayoz, 2019. – B. 110-111.

⁴ Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2014. – B 36-37.

qaram davr boshlangan. 1873-yil 12-avgustda Rossiya bilan Xiva xoni Muhammad Rahimxon II o'rtasida Gandimiyon qishlog'idagi xonning yozgi qarorgohida shartnoma imzolanadi. Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylandi va ikki million ikki yuz ming rubl tovon to'ladi.

Feruz Xorazmda 47 yilu sakkiz oyu 20 kun 20 kun hukmronlik qilgan. Muhammad Rahim soniy umrining oxirida chap tomoni butunlay shol bo'lib, falaj kasaliga uchraydi va shu kasaldan vafot etadi. Bayoniy Muhammad Rahimxon II janozasida qatnashadi va o'z ko'zi bilan ko'rganlarini, Feruzning tobuti o'zi qurdirgan madrasaga qo'yilib, o'sha yerda janoza o'qilgan va Isfandiyor boshliq barcha ulamo, fuzalo va arkoni davlat hozir bo'lganligini hikoya qiladi. Feruz Sayd Mahruyjon majmuasidagi Sayid Mohi Ro'yi Jahon maqbarasida dafn qilingan.

Feruzdan bizga juda katta adabiy meros qolgan. U o'zining say harakatlari bilan Xiva xonligida yangi bir ijodiy muhit sari qadam qo'ydi. O'zidan o'lmas asarlar yozib qoldirdi. 1879-yil sherlariga Devoni Feruz deb tartib bergan. Bu devon 1900-yil Muhammad Sharif tomonidan qayta ko'chirilgan. Feruzning o'zi Pahlavon Mahmudning 350 ruboiysini qayta ko'chirgan. Ogahiy, Komil, Tabibiy va boshqalar tasirida o'zi ham Feruz ya'ni baxtli g'olib taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning davrida 30 dan ortiq inshoatlar qad ko'targan. Uning buyrig'iga binoan Qo'ng'iro't tumani sahadida katta ariq bunyod etilgan. Hozirda ushbu ariq "Xon arig'i" deb ataladi. Feruz mumtoz she'riyatning an'anaviy janrlarida lirik sherlar yaratgan. O'zr FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik va H.Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar institutlari, Moskva, Samkt-Peterburg shaharlari hamda Britaniya, Fransiya, Turkiya kabi mamlakatlarning kutubxonalarida Feruz tomonidan yaratilgan "G'azaliyoti Feruz", "Bayozi Feruz", "Devoni Feruz" asarlari saqlanmoqda. Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida shoirning o'nga yaqin g'azal majmualari mavjud. Feruz ijodiga nazar tashlar ekanmiz uning g'zaliyotining juda ko'p qismi ishq- muhabbat mavzusiga bag'ishlangan.

Muhammad Rahimxon II ning tarixda xizmatlari katta unig davrida Xiva xonligida madaniy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan bir evrilish sodir bo'ldi. Ogahiyning ko'pchilik asarlari ham, Xiva xonligida qurilgan ko'pchilik inshoatlar ham uning davrida qurilgan hisoblanadi. U qurdirgan ko'plab inshoatlar hozir ham mavjud bo'lib Ichanqal'a ko'rkiga ko'rk qo'shib turiadi va uning nomini abadiylikka muhrladi.